

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYLAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



**IKKINCHI CHET TILI (YAPON TILI) YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
SINOVI DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

Samarqand - 2025

Dastur Samarqand davlat chet tillar instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2025 yil "___" _____dagi "___"-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: F.M. Lutfilloyeva - Yapon filologiyasi kafedrasini mudiri, PhD., dotsent.
Jo'ramurodov D. - Yapon filologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: Bakiyev F. - Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri

Mazkur dastur asosida bitiruvchining ixtisoslik fanlaridan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalari darajalari DTS va malaka talablari doirasida kompleks tarzda baholanadi.

I. KIRISH

Mazkur Davlat attestatsiyasi dasturi oliy o'quv yurtlarining 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-1875-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish va chet tillarni o'qitish borasida xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda mazkur dasturda yapon tilini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitish nazarda tutilgan.

Mazkur Davlat attestatsiyasi dasturining maqsad va vazifalari, bakalavriyat bosqichida talabalar o'rgangan tildan talabalarning bilimini baholashda "Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) tizimini jahon standartiga tenglashtirish maqsadida 4-kurs talabalarida B2 darajaga moslab ishlab chiqilgan yakuniy davlat attestatsiyasi savollarini baholash tartibini o'z ichiga oladi.

II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI TARKIBI

Ushbu yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi dasturi orqali bitiruvchi talabalarning chet tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari til ko'nikmalarining barcha turlari asosida baholanadi. Mazkur attestatsiya imtihoni asosida bitiruvchi talabalarning 4 ta til ko'nikmalarini o'z ichiga oladi va 4 qismdan tashkil topadi.

Yakuniy attestatsiya sinovi 4 bo'limdan iborat:

1. **Tinglab tushunish ko'nikmasi:** topshiriq og'zaki matni tinglab tushunishga yo'naltiriladi. Tinglab tushunish qismi 10 ta savoldan iborat.
2. **O'qish ko'nikmasi:** o'qish ko'nikmasi va strategiyalarini tekshirishga mo'ljallangan turli matnlar, ular bo'yicha tuzilgan umumiy 20 ta savoldan iborat. Ushbu qism 40 daqiqaga mo'ljallangan
3. **Yozish ko'nikmasi:** topshiriq yozma muloqotni tekshirishga yo'naltiriladi va 1 soatga mo'ljallangan. Mazkur topshiriqda talabalardan 2 ta yozma ish yozish talab qilinadi.

Birinchi topshiriq 50 ta so'zdan tashkil topgan 1 ta rasmiy xat yozish, ikkinchi topshiriq esa 70 ta so'zdan iborat bo'lgan insho yozish so'raladi

4. **Gapirish ko'nikmasi:** Gapirish ko'nikmasini baholash ikki qismdan iborat bo'lgan intervyu shaklida tashkil etilgan og'zaki topshiriqdan iborat.
 - 1) Kasbiga, kelgusi rejalariga oid umumiy muloqot. Ushbu qismda bitiruvchilar o'z kasblariga oid har qanday suhbatni olib bora olishlarini namoyish etadilar.
 - 2) Muayyan mavzu asosida maqsadli bahs-munozara va savol- javob. Topshiriqning bu qismida bitiruvchi talabalar turli mavzular doirasida bahs yuritish, qiyoslash, taqqoslash, afzallik va kamchiliklar, muammo echimini yoritish, fikrni dalil bilan isbotlay olish kabi gapirish ko'nikmalarini ko'rsatadilar.

Test topshiruvchilarning og'zaki nutqi har bir bitiruvchi talaba uchun individual tashkillashtirilib, har bir talabaga baholovchi o'qituvchilar tomonidan 15 daqiqa vaqt ajratiladi

III. HAR BIR TIL KO'NIKMASI BO'YICHA TEST-SINOVLARI TAVSIFI

1. Tinglab tushunish ko'nikmasining maqsadi:

- Tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha CEFR B2 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining og'zaki matnni tinglab tushuna olishini tekshirish;
- ma'lumotlarni farqlay olishi va aniqlik kirita olishi; turli janrdagi, rasmiy va og'zaki nutqni, idiomatik iboralarni ajrata olishi va tushuna olishi;
- kengaytirilgan hajmdagi nutqni gapiruvchilar va ular o'rtasidagi munosabat faqat nazarda tutilgan, ya'ni ochiq ishora etilmagan bo'lsa ham tushuna olishi;
- murakkab, notanish mavzular muhokamasini va munozara mazmunini osonlik bilan tushuna olishi;
- ko'pgina ma'ruzalar, bahs va munozaralarni tushuna olishi;
- noaniq, eshitish qiyin bo'lgan e'lonlarni tushuna olishi;
- murakkab texnik ko'rsatmalar, mahsulotlar va xizmatlar ta'rifini tushuna olishi;
- kontekstdan kelib chiqib, grammatik va leksik bilimlarga tayangan holda so'zlashuvchilarning maqsadlarini va keyingi aytilishi mumkin bo'lgan masalalarni taxmin qila olishi talab etiladi.

2. O'qish ko'nikmasi bo'limining maqsadi:

- O'qish ko'nikmasi bo'yicha CEFR B2 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining yozma matnni tushuna olishini tekshirish;
- abstrakt va murakkab mavzulardagi suhbat ma'nosini tushuna olishi;
- ijtimoiy sohada va sayohat davomida turli murakkablik darajasidagi jurnal va gazeta maqolalarini tushuna olishi;
- ish joyida yozma ko'rsatmalarga amal qila olishi hamda murakkab tushunchalardan va terminlardan holi bo'lgan, o'z kundalik sohalariga oid matn va hisobotlarni o'qib tushuna olishi;
- turli idiomatik va og'zaki nutq iboralarni audio matnda eshitib tushuna olishi talab etiladi.

Talabalardan test davomida quyidagi o'qish ko'nikmalari va strategiyalarni qo'llash talab etiladi:

- matnning umumiy ma'nosini tushunish uchun o'qish
- matndagi muayyan detallarni topish uchun o'qish;
- matndagi asosiy ma'nolar va ularni yorituvchi dalillarni topish uchun o'qish;
- berilayotgan taklif yoki ma'noni anglash uchun o'qish;
- berilgan ma'lum bir so'zning ma'nosini aniqlash uchun o'qish.

Turli diskurs bilan ishlash maqsadida berilgan matnlar, jumladan tasvirlash, hikoya qilish, solishtirish, tahlil etishga asoslangan matnlar original manbalardan, autentik holatda ishlatiladi.

3. Yozish ko'nikmasi bo'limi maqsadi:

- Yozish ko'nikmasi bo'yicha CEFR B2 gacha bo'lgan darajada test topshiruvchining matn turlarini yoza olish ko'nikmasini tekshirish;
- ijtimoiy sohada va sayohat davomida turli murakkablik darajasidagi shaxsiy va qisman shaxsiy xatlarni, jumladan gazeta tahririyatiga xat kabilarni yoza olishi; turli maqsadga yo'naltirilgan xat turlarini jumladan, ariza, shikoyat xati, iltimosnoma, ilova xatlar kabilarni yoza olishi;
- ish joylarida kundalik hayotga doir oldi-sotdi va xizmatlar bilan bog'liq yozishuvlarni bajara olishi;
- alohida diplomatik va nozik vaziyatlarni talab etuvchi iltimosnomalarni yozishda qo'shimcha yordam yoki resurslardan foydalangan holda yoza olishi;
- murakkab va abstrakt mavzularda xat va yozishmalarni yoza olishi;

- ta'limda ma'ruzalardan konspekt tayyorlay olishi, turli akademik yozma topshiriqlarni yoza olishi va turli manbalardan ma'lumotlarni jamlagan holda grammatik, leksik va uslubiy xatolarga deyarli yo'l qo'yilmagan insho yoza olishi.

4. Gapirish ko'nikmasi (intervyu) bo'limining maqsadi:

- Gapirish ko'nikmasi bo'yicha test topshiruvchining CEFR B2 darajasigacha muloqot qila olish ko'nikmasini tekshirish;
- turli maqsadlarda tilni og'zaki muloqot uchun qo'llay olishi;
- tilda grammatik va leksik bilimlardan hamda og'zaki muloqotning turli strategiyalaridan samarali foydalangan holda etarli darajada og'zaki muloqot ko'nikmalarini namoyish eta olishi.

IV. IKKINCHI CHET TILI FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVINI O'TKAZISH TARTIBI VA UNI BAHOLASH MEZONI

Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun tuzilgan topshiriqlar Umumyevropa kompetensiyalari (CEFR) darajalari asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo'yicha baholanadi.

Umumiy 100 ball bo'lgan yakuniy topshiriqlar bo'limlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- tinglab tushunish ko'nikmasi – 25 ball
- o'qish –25 ball
- yozuv ko'nikmasi – 25 ball
- gapirish ko'nikmasi–25 ballni tashkil etadi.

4.Yozuv ko'nikmasini baholash bo'yicha mezonlar

Ball	CEFR indikatorlari	Til	Yozish strategiyasi
86-100 (17-20)	Tegishli muhim masalalarni ta'kidlagan holda murakkab mavzularda aniq va tushunarli matn yoza oladi; Mos keladigan misollardan foydalanib, sabablarini ochib bergan holda masalalarni keng yoritadi va oydinlik kiritadi. Yozilgan matn o'qiydigan o'quvchiga mos keladigan va tushunarli bo'lgan uslubni tanlay oladi.	Grammatik xatolardan holi va agar biror xatoga yo'l qo'yilgan taqdirda xam matn tushunishida o'quvchiga mutlaqo qiyinchilik tug'dirmaydi; So'z boyligidan unumli foydalangan va shuningdek, takrorlashlarga yo'l qo'ymay, turli sinonimlar, sifat va ravish so'zlardan samarali foydalangan.	Vazifa ko'rsatmasiga to'liq amal qilingan. Fikrlar to'liq yoritilgan va misollar bilan samarali boyitilgan. Ehtiyojga ko'ra shaxsiy tajribaga asoslangan misollar o'z o'rnida ishlatilgan. Yozilgan matnning hajmi talabga mos kelishi.
71-85 (14-16)	Insho, hisobot kabilarni yozishda dalillarga va misollarga tizimli yondashgan holda masalaning afzalliklari va kamchiliklarini yoritadi. Xatlarni yozishda shaxsiy hayotiy tajribasi va misollardan foydalana oladi. Murakkab mavzularda matn yoza olsa ham har doim ham fikrlarga etarli darajada aniqlik kiritmaydi.	Gaplar grammatik va leksik jihatdan deyarli to'g'ri tuzilgan biroq ba'zi xatolardan mavjud; Ba'zida uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan; Matnning ba'zi qismlarda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.	Mavzuni yoritishga harakat qilingan, biroq ba'zi joylarda mavzudan tashqari fikrlar berilgan. Ba'zi fikrlar o'rnida ishlatilgan bo'lsada, yetarlicha yoritilmagan yoki misollar bilan yetarlicha boyitilmagan. Matn hajmi belgilangan talabdan kamroq.
55-70	O'ziga qiziq bo'lgan mavzularda qisqa va sodda insholar yoza oladi.	Grammatik va leksik xatolarga yo'l qo'yilgan	Vazifada ko'rsatilgan mavzuni aniq yoritmagan.

(11-13)	Kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan va kasbiga doir masalalarda xulosa, hisobot yoza oladi va faktlarga asoslangan ma'lumotlarni o'z fikrlari bilan boyitgan holda yozma bayon eta oladi. Nisbatan sodda, shaxsiy xatlarni tushunarli bayon etgan holda yoza oladi. Standart formatda ma'lum bo'lgan faktlarga asoslangan ma'lumotlar va takliflarni qo'llagan holda juda qisqa hisobot yoza oladi. Tajriba va his-tuyg'ularini tasvirlagan holda shaxsiy xat yoza oladi.	biroq mazmun tili tushunarli. So'z boyligi chegaralangan. Tanlangan uslub yozuv matni bilan unchalik mos emas. Matn qoniqarli tuzilgan. Yo'l qo'yilgan xatolar matn mazmunini tushunishda qiyinchilik tug'diradi. So'z boyligi juda chegaralangan. Matnning stilistik(uslubiy) tuzilishi to'g'risidagi bilimi cheklangan. Matnni tuzishda e'tiborsizlikka yo'l qo'ygan.	Fikrlar yuzaki berilgan va misollar aniq emas. Matnning hajmi qo'yilgan talab darajasida emas. Yoritilgan ba'zi fikrlar topshiriq mazmuniga to'g'ri kelmaydi. Fikrlar tor doirada berilgan va misollar juda kam berilgan. Matn hajmi qo'yilgan talabdan ancha kam.
55 dan past (11 dan past)	Yuqoridagi talablarga javob bera olmagan holatda mutaxassislik (chet tili) fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'tmagan hisoblanadi.		

5. Og'zaki muloqot ko'nikmasi va strategiyalarini qo'llash bo'yicha mezon

Gapirish ko'nikmasi bo'yicha intervyu quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- Intervyu o'tkazish uchun har bir juftlik uchun 2 nafar o'qituvchi jalb qilinadi. Ularning biri intervyu boshqaruvchi va ikkinchisi baholovchi vazifasini bajaradilar. Har bir juftlikdan so'ng har ikkala baholovchi baholarni o'zaro muhokama qilgan va kelishgan holda eng so'nggi ballni beradilar.
- Intervyu o'tkazuvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan barcha test materiallari (savollar, baholash mezonlari tasnifi, bahoni qayd etish shakli, izohlar yozib borish uchun oq qog'oz, soat) bilan intervyu stoliga joylashadi.
- Baholovchi ham baholash mezonlari tasnifi, bahoni qayd etish shakli, izohlar yozib borish uchun oq qog'oz bilan test topshiruvchilar stolidan 2-3 metr uzoqdagi stolda joylashadi.
- 2 ta talaba intervyu xonasiga taklif etiladi va intervyu o'tkazuvchiga qarama-qarshi tomonda joylashadilar.
- Intervyu o'tkazuvchi intervyu boshlanganda, soat va ehtiyojga ko'ra intervyuni yozib olish uchun diktofonni yoqib qo'yadi.
- Har bir talaba o'z ismi-sharifini va guruhini intervyuni olib boruvchiga ma'lum qiladi.
- 2-qismni boshlaganda birinchi o'ylash uchun beriladigan mavzuni o'qiydi va bir daqiqa vaqt ajratadi. O'ylash vaqti boshlanayotganda taymerni yoqadi. Shu vaqtda intervyu oluvchi mezonlarni ko'rib chiqishi va ma'lum qaydlarni qilishi mumkin. Ushbu qaydlardan baholovchi munozara va kelishuv vaqtida foydalanadi.
- Har bir talaba uchun umumiy 8-10 daqiqa beriladi, o'ylash uchun 1daqiqa ajratiladi.
- Intervyu tugaganda, uni o'tkazuvchi va baholovchi birga o'tirib, o'z baholarini mezonlarga asosan taqqoslaydilar. Yakuniy baho qo'yilib, qaydnomada qayd etilgandan so'ng keyingi juftlik taklif etiladi.
- Topshiriq uchun umumiy ball berish orqali juftlikdagi har bir sinov topshiruvchi alohida baholanadi.

Gapirish ko'nikmasini baholash mezonlari

- CEFR darajalar
- Til tizimidan o'tkazish mezon.

Ball	CEFR indikator
86-100 (17-20)	O'z fikrlarini aniq bayon qiyalmasdan bayon qiladi. So'z, iboralar va strategiyalarini talabga deyarli qiyalmasdan bayon qiladi. Qiyin konseptual fikrlar hisobga olmasa, mavzuga ravon va tabiiy. Gapirishni rejalashtirgan fikrni suhbatdoshiga qayta ko'rsatishini oldindan qilgan holda o'z fikrini bayon qiladi.
70-85 (14-16)	Umumiy, ta'lim, madaniy hordiq mavzularda o'z fikrini bayon qilgan holda talabga bog'lagan holda talabga xatosiz, ravon ishlaydi. Tayyorgarlik ko'rsatib, rasmiy va mavzuni vaziyatni his etgan holda talabga to'satdan muloqot qiladi. Nima haqida fikrini rejalashtira oladi. Gapiradigan fikrni suhbatdoshiga qayta ko'rsatishini oldindan qilgan holda o'z fikrini bayon qiladi. Til sohiblari bilan kelishi mumkin bo'lgan mavzularni kutilmagan mulokot imkonini boricha erishadi. Voqealar va tajribalar gapirganda muhim voqea urg'u bera oladi, talabga va misollar, o'z fikrini talab bilan o'rtoqlashadi.

- CEFR darajalari gapirish ko'nikmasi uchun ishlab chiqilgan indikatorlar;
- Til tizimidan (so'z boyligi, grammatik savodxonlik, talaffuz) to'g'ri foydalanish bo'yicha mezon.

Ball	CEFR indikatorlari	Til tizimidan to'g'ri foydalanish	Strategiyalarni qo'llay olishi
86-100 (17-20)	O'z fikrlarini aniq va qiynalmasdan bayon qiladi. So'z, iboralar va og'zaki nutq strategiyalarini tanlashda deyarli qiynalmaydi. Faqatgina qiyin konseptual mavzularni hisobga olmasa, nutqi doimo ravon va tabiiy. Nima haqida gapirishni rejalashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o'z nutqini tuza oladi.	Murakkab gaplarni ishlatishda ba'zi xatolarga yo'l qo'yilgan taqdirda xam muloqotning sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi. Grammatik va leksik birikmalardan, imkoniyatlardan keng foydalanadi. Juda keng leksik repertuarga ega. Rasmiy va norasmiy til birikmalaridan to'g'ri foydalanadi. Ma'no va his-tuyg'ularni ifodalashga mos keladigan talaffuz imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanadi. Talaffuzi tushunarli va test topshiruvchining aksenti uning nutqini tushunishga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.	Bog'lovchi birikmalardan samarali foydalanadi va sukutni mos keladigan perifrazalar bilan to'ldira oladi. Muloqotning ravon ketishini buzmaganda holda duch keladigan ba'zi qiyinchiliklarni engay oladi va aytmoqchi bo'lgan fikrini boshqacha yo'l bilan tushuntira oladi. Savollarni aniqlashtirishi mumkin.
70-85 (14-16)	Umumiy, ta'lim, kasbiy va madaniy hordiq kabi mavzularda o'zaro fikrlarni bog'lagan holda tilni deyarli xatosiz, ravon ishlata oladi. Tayyorgarlik ko'rmasdan turib, rasmiy va norasmiy vaziyatni his etgan holda to'satdan muloqotga kirisha oladi. Nima haqida gapirishni rejalashtira oladi va gapiradigan fikri suhbatdoshiga qanday ta'sir ko'rsatishini oldindan taxmin qilgan holda o'z nutqini tuza oladi. Til sohiblari bilan duch kelishi mumkin bo'lgan kutilmagan muloqotni imkoni boricha erkin olib bora oladi. Voqealar va tajribalari haqida gapirganda muhim joylariga urg'u bera oladi, tegishli dalil va misollar, o'z nuqtai nazari bilan o'rtoqlasha oladi.	Murakkab gaplarda ba'zi muhim bo'lmagan va muloqotning mazmuniga ta'sir qilmaydigan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Grammatik birikmalardan va leksik imkoniyatlardan keng foydalanadi. Rasmiylik darajasini deyarli to'g'ri tanlay oladi. Bir oz ikkilanish va sukut saqlash xolatlarini inobatga olmaganda nutqini ravon tuza oladi. Intonatsiyasi va talaffuzi nutqqa mos va faqat juda kam hollarda muloqot mazmunini tushunishga ta'sir qilmaydigan xatoga yo'l qo'yishi mumkin.	Bog'lovchi birikmalardan samarali foydalanadi va sukutni mos keladigan perifrazalar bilan to'ldira oladi. O'zi yo'l qo'ygan xatolarini sezadi va zudlik bilan tuzatib keta oladi. Savollarni aniqlashtirishi mumkin. Jumlalarni boshqalari bilan o'zgartirishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin, masalan ba'zan sinonimlar, iboralar, so'z birikmalaridan ma'lum darajada foydalana oladi. O'z xatolarini tushunadi va tuzata oladi. Ba'zi berilgan savollar va ko'rsatmalarni tushunishda yoki talqin etishda xatolikka yo'l qo'yishi mumkin.

<p>55-70 (11-13)</p>	<p>O'z qiziqishlari va kasbiga doir o'ziga ma'lum va unchalik ma'lum bo'lmagan mavzularda gapira oladi. Fikr almasha oladi, ma'qullay oladi, kundalik turmushga oid bo'lmagan masalalarda gapira oladi va muammoni tushuntira oladi. Abstrakt mavzularda, shuningdek, madaniyat, film, kitoblar, musiqa kabi mavzularda gapira oladi. Fikrini aytishda qiyinroq kombinatsiyalardan foydalanib ko'rishga harakat qiladi va intervyu oluvchining ma'qullashini kutadi.</p>	<p>Sodda gaplar to'g'ri tuzilgan, biroq murakkab gaplarni tuzishda qiynaladi va xatolarga yo'l qo'yadi. Shaxsiy ma'lumotlarni va rasmlarni tasvirlash uchun so'z boyligi etarli. Oddiy so'zlarni to'g'ri ishlatadi biroq kam uchraydigan so'zlardan unchalik foydalanmaydi. Ritm va nutq tezligiga amal qila oladi, intonatsiyani to'g'ri qo'llashda bilimi chegaralangan. Ba'zan so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Qisqa gaplarni bexato tuza oladi, biroq murakkab gaplarni tuzishda mazmunni tushunishga ta'sir qilmaydigan xatolarga yo'l qo'yadi.</p>	<p>Sodda xatolarini o'zi tuzatib keta oladi. Bilmagan so'zini uni tushuntirish yoki mos keladigan xislatlarini tushuntirishga harakat qilish orqali ifodalashi mumkin (masalan, odamlar uchun katta mashina = avtobus). Zamonlar va birikmalar o'rtasida chalkashlikka yo'l qo'yishi mumkin. O'zi ishlatgan ibora yoki gap strukturalarini to'g'ri qo'llagani haqida test o'tkazuvchining tasdig'ini so'rashi mumkin. Ba'zan muloqot uzilib qolganda, turli usullardan foydalangan holda uni tiklashga harakat qiladi. Ko'p hollarda savollarni tezda tushunishga qiynaladi.</p>
<p>55 dan past (11 dan past)</p>	<p>Yuqoridagi talablarga javob bera olmagan holatda mutaxassislik (chet tili) fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'tmagan hisoblanadi.</p>		

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(talabalar YADAgA tayyorlanishlari uchun)

Asosiy sharq tili

1. Kijima Hiromi. Marugoto CanDo A1 Rikai. Sanshyusha-Tokyo. 2013.
2. Kijima Hiromi. Marugoto CanDo A1 Katsudou. Sanshyusha-Tokyo. 2013.
3. Kijima Hiromi. Marugoto CanDo A2 Rikai. Sanshyusha-Tokyo. 2013.
4. Kijima Hiromi. Marugoto CanDo A2 Katsudou. Sanshyusha-Tokyo. 2013.
5. Kijima Hiromi. Marugoto CanDo B1 Rikai. Sanshyusha-Tokyo. 2013.
6. Kijima Hiromi. Marugoto CanDo B2 Rikai. Sanshyusha-Tokyo. 2013.
7. Матчанов Э., Гулямов И. Япон тили -1. Тошкент. 2013.
8. Сугано Р., Халмурзаева Н. Япон тили -2. Тошкент. 2013.
9. Сугано Рейко., Япон тили -3. Тошкент. 2013.
10. Халмурзаева Н., Япон тили -4. Тошкент, 2013.

Elektron ta'lim resurslar

1. [http:// www. Ziyonet](http://www.Ziyonet) – O'zbekiston internet tarmog'i
2. [http:// librarybooks. ne](http://librarybooks.ne)

Internet saytlari

1. <https://www.manavi.zoshindo.co.jp>
2. <https://kids.gakken.co.jp>
3. <https://kids.gakken.co.jp/teacher/>
4. <https://ieben.gakken.jp/>